

YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM INDUSTRIYASI KORXONALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Feruza Temirova

Dotsent, Qarshi davlat texnika universiteti

Choriyeva Ozoda

Talaba, Qarshi davlat texnika universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15696404>

Annotatsiya: Mazkur maqolada turizm, uning mamlakat rivojlanishidagi ta'siri, turizm industriyasi korxonalari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: turizm, industriya, korxona, zamonaviy, O'zbekiston, boshqarmoq, takomillashtirmoq.

Kirish. Yangi O'zbekistonda turizm xizmatlari rivojlanib, turistlar uchun mo'ljallangan obyektlarning har tomonlama maqbulligi, transport va mehmonxona xizmatlari va umuman, sayyohlik logistikasi bilan bog'liq barcha xizmatlarning qulayligi, xavfsizligi, zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Respublikamizning geografik o'rni nihoyatda qulay, ajoyib tabiiy-iqlim sharoitiga egaligi, insoniyat madaniy taraqqiyotida ham katta o'rin tutishi xalqaro turizm sohasidagi imkoniyatlarining kattaligi bilan qo'shni mamlakatlardan tubdan farq qiladi. Bu esa ishning dolzarbligini ko'rsatadi hamda turizm xizmatlarini rivojlantirishning samaradorligini oshirish, mazkur xizmatlar sohasining raqobatbardoshligini ta'minlash, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va yangi turistik marshrutlarni yaratishni tartibga solish takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlarni takomillashtirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. U iqtisodiyotni rivojlantirish bilan birga mahalliy aholining ish bilan bandligini ta'minlash, shu orqali turmush darajasini yaxshilash, xorijiy turistlarni jalb qilish, tarixiy yodgorliklarni asrab avaylash kabi ishlarga salmoqli hissa qo'shish imkoniyatini kengaytiradi. [2]

Metodologiya. Jahonda bugungi kunda turizm aksariyat mamlakatlarda milliy iqtisodiyotga salmoqli daromad keltiruvchi sohalardan biri hisoblanadi. Turizm xizmatlarini tashkil etishning obyektiv zaruriyati va uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini quyidagi asosiy vazifalar orqali belgilash mumkin:

- mamlakat bo'yicha milliy foydani oshirish. Turistik xizmatlar ishlab chiqarish, boshqa tarmoqlar hamda sohalar faoliyati bilan birgalikda milliy mahsulotni shakillantiradi.

- yangi ish joylarining yaratilishi orqali mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish. Turizm faoliyatida mehmonxona xo'jaligi va ovqatlanish korxonalariga, sanatoriya-kurort tarmoqlariga, turizmning davlat va jamiyatni bog'lovchi boshqa faoliyat sohalariga ishchi kuchi talab qiladi ya'ni turizm faoliyati aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashadi.

- valyuta tushumining kirib kelishini ta'minlash vositasi. Turizm xizmatlarni import shu bilan bir qatorda eksport qilish jarayonlarini amalga oshiradi. Turistik tovar va xizmatlarni import qilish jarayonida mazkur davlat iqtisodiyotining aktiv ikkinchi holatda esa passiv turi to'g'risida gap boradi. Tarmoqning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, turistik

tovarlar va xizmatlar eksport qilinishida chetga chiqarilmaydi balki, turistlarni qabul qiluvchi mamlakatning o'zida iste'mol qilinadi.

- aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish. Turizm xizmat sohasi faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes korxonalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, mahalliy infrastrukturaning rivojlanishiga imkon tug'diradi va aholi yashash darajasi hamda daromadlarini oshiradi.

- iqtisodiy infrastrukturaning rivojlanishiga ko'maklashadi. Turizm sohasida boshqa tarmoq va sohalar faoliyatlari bilan bog'liq ravishda xizmat ko'rsatish tarmog'ini yaratish ularning rivojlanishini tezlashtiradi hamda iqtisodiyotni diversifikatsiyalash imkonini beradi.[4]

O'zbekistonda turizm iqtisodiyotning strategik sektoriga aylantiriladi. Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi sayyohlik sohasini rivojlantirishni tezlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonida ko'zda tutilgan.

Farmon mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, turizm tarmog'ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ'ibot qilish, turizm sohasida O'zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirishga yo'naltirilgan.

"Turizm sohasida ulkan imkoniyatlar mavjudligiga qaramay, O'zbekistonning turizm infratuzilmasi, turizm xizmatlari sifati va uning darajasi, shuningdek tarmoqni boshqarish tizimi globallashuv va keskin raqobat sharoitida zamonaviy talablarga mos kelmaydi. Turizmning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasi, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va aholini ish bilan ta'minlash jahondagi o'rtacha ko'rsatkichlardan orqada qolmoqda", deyilgan farmon sharhida.

Jumladan, 2017 yilning 1 yanvaridan boshlab turizm faoliyatiga litsenziya berish vazifasi Vazirlar Mahkamasidan yangi tashkil qilingan davlat qo'mitasiga o'tkaziladi, bunda mehmonxonalar va odamlar yashaydigan boshqa joylarning litsenziya olishlari to'g'risidagi talab bekor qilinadi. O'z navbatida 2018 yildan boshlab xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari va avtotransport korxonalarini xorijiy turistlarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash maqsadida majburiy sertifikatlash joriy etiladi. Prezidentimiz tomonidan turizm sohasini rivojlantirish uchun ko'plab qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Bu orqali tadbirkorlar va sayyohlar uchun ko'plab qulaylik va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Hududda joriy yilning o'tgan davri mobaynida 282 million dollar miqdoridagi jami 56 ta loyihalar amalga oshirilishi natijasida 1 ming 42 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Xususan, 2018-yil 1 dekabr holatiga ko'ra viloyatga kelgan turistlar soni 16 million 337 ming nafarni, shundan, xorijiy turistlar 984,2 ming nafarni, turizm xizmatlari eksporti 390 million dollarni tashkil etdi. 2025 yilda esa bu boradagi ko'rsatkichlarni yanada oshirish borasida reja qilingan. Buning uchun kelgusida umumiy qiymati 560 million dollar miqdoridagi jami 65 ta loyihalar ishga tushiriladi.

Natijalar va tahlil. Bugungi kunda Bo'stonliq tumanida "Amirsoy", "Xeavens Garden", Parkent tumanida "Zamona Ra'no" dam olish maskani kabi "turizm klaster"lari sayyohlarning sevimli manzillaridan hisoblanadi. Bundan tashqari, Toshkent viloyatida turizm sohasini asosiy daromad manbaiga aylantirish bo'yicha istiqbolli rejalar ishlab chiqilgan. Jumladan,

hududlar bo'yicha turizmning aniq bir yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashuv dasturi qabul qilindi. Unga ko'ra, Zangiota va Toshkent tumanlarida tibbiyot turizmi rivojlantiriladi. Ohangaron, Piskent, Chinoz va O'rta Chirchiq tumanlarida ov turizmi yo'lga qo'yiladi. Bo'stonliq, Parkent tumanlari va Angren shahrida tog' ekstremal turizm faoliyati ishga tushiriladi. Xususan, ushbu yo'nalishlarda 2025-2026 yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan umumiy qiymati 3 milliard 285 million dollarlik 265 ta investitsiya loyihalarini ishga tushirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Shundan 1 milliard 914 million dollari xorijiy investitsiya hisobiga to'g'ri keladi. Natijada 14 ming 487 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Prezidentning 2024 yil 12 yanvar kungi "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida suv havzalari bo'ylarida turizm xizmatlarini tashkil etish, yangi bunyod etilayotgan turizm ob'ektlarida cho'milish havzalari, basseynlar tashkil etish bo'yicha bir qator topshiriqlar berilgan.

Farmon ijrosi yuzasidan Tuyabo'g'iz suv havzasi bo'yidagi oromgohda zamonaviy basseyn va plyaj foydalanishga topshirildi. Nurafshon shahrida sun'iy ko'l havzasi tashkil etilib, doimiy ravishda keluvchilarga ko'ngilochar xizmatlar ko'rsatmoqda. Bo'stonliq tumanida "Heaven's Garden" dam olish maskanida Singapurning "Marina Bay" suv havzasi andozasi asosida zamonaviy basseyn bunyod etildi. Bu orqali joylarda kichik hajmdagi suv havzalari soni 184 taga yetdi.

Shuningdek, 2025 yilda "Chorvoq darvozasi" loyihasi misolida tashabbuskor tadbirkorlar bilan Angren shahrida "Angren daryosi" bo'yida, Parkent tumani "Parkentsoy" bo'yida, Chinoz tumani "Sirdaryo" daryosi bo'yida ko'p qavatli uylar, zamonaviy mehmonxona, dam olish va ko'ngilochar maskanlar, xizmat ko'rsatish va savdo shoxobchalarini ishga tushirish bo'yicha loyiha takliflari tayyorlangan. Hududlarning master-rejasi tayyorlanib, yerlar lotlarga ajratilib, onlayn-auksion savdolariga chiqariladi.

Turizm bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki mamlakat imijini shakllantirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasiga katta e'tibor qaratilib, xorijiy va ichki turizmni rivojlantirish yo'lida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Shunga qaramay, turizm industriyasi korxonalarini boshqarish tizimida hali ham hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar mavjud.[2]

Turizm industriyasining hozirgi holati

O'zbekiston boy madaniy merosga, tarixiy obidalarga va betakror tabiiy manzaralarga ega. Bu esa turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ayni paytda mamlakatda mingdan ortiq mehmonxona, sanatoriy, dam olish maskanlari va boshqa turistik obyektlar faoliyat yuritmoqda. Ammo ularning aksariyatida menejment zamonaviy talablar darajasida emas, xizmat ko'rsatish sifati past, raqobatbardoshlik yetarli emas. 2025-yilda O'zbekistonga 12 million xorijiy sayyoh tashrif buyuradi. 2025-yilda O'zbekistonga 12 million xorijiy sayyoh tashrif buyuradi. Toshkent, O'zbekiston (UzDaily.uz) — O'zbekiston Turizm qo'mitasi 2025-yilda mamlakatga 12 million xorijiy sayyoh tashrif buyurishini prognoz qilmoqda. Bu haqda turizm kompaniyalari bilan o'tkazilgan ochiq muloqotda ma'lum bo'ldi. [6]

Xulosa. Zamonaviy O'zbekiston sharoitida turizm industriyasi korxonalarini samarali boshqarish mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Yangi

yondashuvlar, innovatsion boshqaruv usullari va ilg'or tajribalarning joriy etilishi orqali sohani xalqaro darajaga olib chiqish mumkin. [1]

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rakhimov M. O'zbekiston turizm sohasida innovatsion rivojlanishning yo'nalishlari. – "Innovatsion rivojlanish" jurnali, 2023, №2.
2. Xolbo'tayev B., Yo'ldoshev A. Xalqaro turizm va uni tashkil etish. – Samarqand: SamISI, 2019.
3. Pardaev M.Q. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning echimlari. Toshkent, IQTISOD-MOLIYA, 2008. - 20-23 b.]
4. Turizm sayyohlik. T.Xoldarov, X.Tulenova Toshkent 2016 yil.
5. Khojanova G. O. NATURAL RESOURCES, THEIR TYPES AND INITIAL APPROACHES //Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. – 2024. – T. 4. – №. 1. – C. 83-86.
6. Xo'janova G. Qashqadaryo viloyatida tabiiy resurslardan foydalanish istiqbollari //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2023. – T. 1. – №. 11-12.
7. Khojanova G. O. INVESTMENT AS A MEANS OF DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF ENTERPRISE PRODUCTION CAPACITY //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-1 (81). – C. 171-175.
8. Khojanova G. Tabiiy resurs salohiyati hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining-asosiy omili sifatida //THE INNOVATION ECONOMY. – 2024. – T. 2. – №. 02.
9. Муродова Н. TURIZM MARKETING FAOLIYATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING AHAMIYATI //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 42-47.
10. Murodova N. O. THE ROLE OF INDUSTRY REGULATIONS IN THE CONSISTENT DEVELOPMENT OF TOURISM //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 1108-1115.
11. Муродова Н. У. Соцсети И Туризм: Роль Отзывов И Рейтингов //Miasto Przyszłości. – 2024. – T. 46. – C. 82-87